

## Jazo-uqubat



11:00 / 09.03.2023 1363

Alloh taolo Musoga qavmining Somiriy sehri bilan fitnalanganini ma'lum qildi. Muso g'oyat xafa bo'lib, g'azablanib qaytdi. U Alloh uchun qavmiga va og'asi Horunga g'azab qildi.

«(Musu qaytib kelgach) dedi:

- «Ey Horun, sen ularning yo'ldan ozganlarini ko'rgan paytingda mening ortimdan borishingdan (va menga bu haqda xabar berishingdan) seni nima to'sdi?! Mening amrimga itoatsizlik qildingmi?!»

Horun uzr aytib:

«Men (agar buzoqqa sig'inayotganlarni qo'yib, yo'ldan ozmagan kishilar bilan sening ortingdan borsam) mening so'zimni kutmay, Bani Isroilni bo'lib yuboribsan, deyishingdan qo'rqdim».

«Bu qavm meni xo'rlab, o'ldirishlariga oz qoldi».

(Musu) dedi:

- «Parvardigorim, meni va birodarimni o'zing mag'firat qilgaysan va bizni o'z rahmatingga dohil qilgaysan. O'zing rahm qilguvchilarning rahmlirog'isan».

So'ng Musu Somiriyga yuzlandi:

- Ey Somiriy! Bu nima qilganing?!

Somiriy o'z gunohiga iqrar bo'lib: «Menga nafsım ana shunday qilishni chiroyli ko'rsatdi», dedi.

(Musu) dedi:

- «Bas yo'qol! Endi sen uchun hayotda «Menga tegmanglar», deyishgina bordir, (ya'ni umringning oxirigacha yakkamoxov bo'lib olursan)».

Musu uni shunday yakkamoxov qilish bilan jazoladi. Endi Somiriy to ajali yetgunicha vahshiy hayvonday odamlardan yiroqda bir o'zi yuradi va bir o'zi yashaydi. U ulfat bo'lmaydi va unga ulfat ham bo'linmaydi. Inson uchun bundan ham qattiq jazo bormi dunyoda?! Minglab kishilarni shirk balchig'i ila bulg'atgan kimsadan hazar qilmoq lozimdir. Alloh bilan bandalari o'rtasini ajratmoqchi bo'lgan kimsa yakkamoxov qilinmog'i shart. Alloh yerida turib unga o'zgalarni sherik qilishga chaqirgan gunohkor kimsa uchun butun yer yuzi zindon bo'lmog'i kerak. Musu Somiriy yasagan la'nati buzoqqa qarab, uni o'tda yondirib, so'ng kulini dengizga sohib yuborishni buyurdi. Bani Isroil o'zlariga ma'buda bo'lgan buzoqning oxir-oqibat bir hovuch kul ekanini hamda zaifligiyu, ojizligini ko'rdilar.

Musu Bani Isroilga qarab xitob qildi:

«Qavmim, sizlar buzoqqa ibodat qilish bilan o'zingizga zulm qildingiz. Endi o'zingizni (bir-biringizni) o'ldirish bilan sizni bor qilguvchi zotga tavba qilasiz. Bor qilguvchi zot nazdida mana shu ( qatl) sizlar uchun xayrliroqdir».

Buzoqqa sig'inmagan kishilar buzoqqa sig'inib ketganlarni qatl qildilar. Alloh taolo ular tavbasini mana shunday qabul etdi.

Alloh taolo dedi:

«Shubhasiz, buzoqni («xudo» qilib) ushlagan kimsalarga Parvardigorlari tarafidan g'azab va hayoti dunyoda xorzorlik yetar. (Alloh sha'niga) yolg'on to'quvchi kimsalarni mana shunday jazolaymiz».

Buzoqqa qul bo'lgan kimsalarning holi, shuningdek mushriklarning holi to qiyomatga qadar mana shunday bo'ladi.